

Qudratova Nargiza

Guliston Davlat Instituti Pedagogika fakulteti Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs 9.23-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oila, oila a‘zolari hamda ular bilan munosabatga kirishish, oilaning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati, O‘zbekistonda oilagan bo‘lgan e‘tibor haqida*

Kalit so‘zlar: *oila, jamiyat, tarbiya, ota -ona mas‘uliyati, faoliyati, oila mustahkamligi.*

KirishBugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan globallashuv davriga kelib ham O‘zbekiston o‘z istiqboli va kelajagini oilani rivojlantirish, uni e‘zozlashda, deb bilayotgani yuqoridagi an’anaviy qadriyatlarimizni yanada boyitgan holda zamonaviy, namunali va farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanganida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Boy ilmiy-madaniy merosimiz, qadimiy urf-odat hamda an’analarimizdan ayonki, har qanday zamon va makonda ham oila biz uchun muqaddas qadriyat sanalgan. Binobarin, tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy, ruhiy-axloqiy, iqtisodiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik hisoblanmish oila qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror taraqqiy etishini ajdodlarimiz juda yaxshi anglashgan. Shu bois ota-bobolarimiz oilaga juda katta e‘tibor bilan qarashgan. Buyuk allomalarimiz Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yugnakiy, Kaykovusdan tortib Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek va boshqalargacha o‘z asarlarida oilaviy masalalar, xususan, oila a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-ona, bobo-buvining o‘rni, komil va vatanparvar shaxsni yetishtirishda bu muhim ijtimoiy institutning roliga alohida yondashib, ibratli hikoyatlar, rivoyatlar, farzandlarga maktublar, hikmatli so‘zlar, she‘riy satrlar orqali pand-nasihatlar, hayotiy xulosalar yozib qoldirganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlarimiz ham odob-axloqi go‘zal, jismonan va ma’nan yetuk avlodni tarbiyalashning yagona yo‘li — barqaror oila qurish ekanini, oilani mustahkamlamasdan davlat va jamiyat taraqqiyotiga erishib bo‘lmasligini ta’kidlashgan. Vazirlar Mahkamasi huzurida “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi oila instituti sohasida yagona davlat siyosatini yurituvchi tizim sifatida tashkil etildi. Markazning asosiy vazifasi davlat va jamoat tashkilotlari, parlament, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini O‘zbekiston oilalarini mustahkamlash g‘oyasi atrofida birlashtirish, bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirib borish, mamlakatda faqat sog‘lom oila — sog‘lom jamiyat ustuni bo‘la

olishini aholi ongiga singdirish, ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish orqali oila institutini mustahkamlash etib belgilangani mamlakatimizda bu borada mutlaqo yangi bosqichdagi sa'y-harakatlar boshlanganidan dalolat beradi. O'z navbatida, umuminsoniy va milliy oilaviy qadriyatlarni tahlil qilish asosida zamonaviy, namunali oila mezonlarini belgilash hamda "Oila jamiyat va davlat himoyasida" konstitutsiyaviy prinsipini keng targ'ib etish va jamiyatga singdirish masalalariga kompleks yondashish faoliyatimizda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Abu Ali ibn Sinoning oilaviy munosabatlar haqida aytgan fikrlari bag'oyat qimmatlidir. Olim "Tadbir-al-manozil" asarida oilada er va xotinning yaxshi sifatlarini sanab o'tadi. Ularning shaxsiy namunalari bola uchun o'rnak bo'lib uning kelajak taqdirini belgilashda muhimligini alohida ta'kidlaydi. Ibn Sinoning fikricha, tarbiyachi faqat so'zdagina nasihatgo'ylik bilan tarbiyalamasdan, balki amalda ham bolalarga o'z xulqi bilan ta'sir qilishi kerak. U ota-onaning bolalar bilan olib boriladigan suhbatining sharti to'g'risida mulohaza yuritib: "Siz gaplashish, fikr olishda xayrixohlik talablariga rioya qilgan holda ish ko'rsangiz, yo'ldan adashmaysiz va to'siqlarga duch kelmaysiz". "Bolada yaxshi xarakter va xulq-atvor tarbiyalash uchun uning shaxsini hurmat qilish kerak, uni sevish va e'zozlash lozim. Uning oldida yomon gapirmaslik, ortiqcha harakatlar qilmaslik kerak, lekin tarbiyada talabchanlik bo'lishi lozim", degan g'oyani ilgari suradi.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida ayolning oila turmushdagi hissasiga va shaxsiy namunasiga quyidagicha to'xtaladi: "Yaxshi rafiq – oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo'lsa – ko'ngul yozig'i, xushmuomala bo'lsa – jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan ma'lumki, ayol oila turmushida erning haqiqiy sodiq yo'ldoshi, bola tarbiyasida yaxshi va yomon sifatlarining tarbiyaviy ta'siri beqiyosligi o'ziga xos tarzda ifodalangan. Ayniqsa qizlar tarbiyasidan onalar yaxshi sifatlarining namunasi va yomon sifatning natijalari oilaga musibat keltirishi pedagogik asoslangan. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "...Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? Degan savol keladur. Bu savolga, birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Bir kishi deyrurki, qaysi onalarni aytursuz, bilimsiz boshi paqmoq, qo'li to'qmoq onalarnimi? O'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar" der. Mana bu so'z kishini yuragini ezar, bag'rini yondurar. Otasiga nima dersiz, desak, "Qaysi ota? To'ychi, uloqchi, bazmchi, do'mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko'zlari qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o'zlarini o'qitmoq, tarbiya qilmoq lozimdur", - der. Mana bu so'zni eshitgach umid qo'llari qo'ltiqqa urilur.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy mavjudotni bilishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishda mavjud, lekin

aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va axloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urf-odatlarini, ma'lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishining eng yetuk mahsuli bo'ladi, deb ta'kidlaydi.

Muhokama

«Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin! Odamlarimiz bilishi kerak, oila muqaddas biz uchun. Oilani saqlab qolmasak, biz o'zligimizni yo'qotamiz", — deb ta'kidlagan edilar davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

Abu Rayhon Beruniy ta'lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mavqeyi, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma'noda insonparvarlik va insonshunoslik zamirida yaratilgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uyg'unlik tamoyillarini mutafakkirning barcha asarlarida kuzatish mumkin. U insonni tabiatning bir qismi deb ta'kidlaydi.

Abdurauf Fitrat aytganidek, avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmatidir. Qachonki biz yaxshi axloq egasi bo'lgan farzandlarni tarbiyalasak, shundagina bo'yimizdagi bu xizmat majburiyati soqit bo'ladi. Kimki, badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi. Jamiyat ularning farzandlaridan bezor bo'ladi. Xush va yaxshi axloqqa ega bo'lgan farzand, xushaxloq iymon sohibi bo'lgan ota-onalardan bo'ladi, agarda ota-ona axloqsiz bo'lsalar, ularning tarbiyalari soyasida o'sgan farzand ham badaxloq bo'ladi", — deya bola tarbiyasida ota-onalarning namuna bo'lishi haqida qimmatli fikrni ilgari surgan.

Natij. Bugungi kunda O'zbekistonda oilaning rivojlanishi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida va 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi doirasida global darajada ko'rib chiqilmoqda. Xususan, mamlakatda oilani mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar kambag'allikni bartaraf etish, iqtisodiy salohiyatni ko'paytirish va ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va bandlik, shuningdek, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qator masalalarni hal etish bilan bir qatorda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida oilani mustahkamlash, sog'lom va baxtli onalik va bolalik uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish haqida g'amxo'rlik qilish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Milliy qadriyatlarga asoslangan va xalqaro huquq normalari va talablariga javob beradigan nikoh va oilaviy munosabatlar hamda oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasi doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan davlat dasturlari oilani mustahkamlashga qaratilmoqda. Mamlakatimizda oilani qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash maqsadida qator

normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish to‘g‘risida”, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarning kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni qabul qilindi, ijtimoiy rehabilitatsiya va moslashtirish tizimini takomillashtirish, oilaviy-maishiy zo‘ravonlikning oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda. Har bir o‘zbekistonlikning hayotida oilaning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixan va tadrijiy jihatdan O‘zbekistonda oila har doim ham shaxsni, ham umuman jamiyatni himoya qilish, xavfsizligini ta‘minlash va rivojlantirish manbai bo‘lib kelgan. Global o‘zgarishlarga, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning ko‘plab asoslari isloh qilinayotganiga, dunyo miqyosida jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy sohasidagi yangi tendensiyalarga qaramasdan, O‘zbekistonda oila eng muhim hayotiy qadriyat, milliy an‘ana va urf-odatlarining mujassamlashgan maskani, shaxsni shakllantirishning va millatni uzluksiz taraqqiy ettirishning asosi hisoblanadi

Xulosa

Xulosa qilib aytganda har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning , oilalar mustahkamligining o‘rni beqiyosdir. Chunkii tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog'lomligiga bog‘liq bo‘lganidek , butun organizm o‘z faoliyatini maqsadga muvofiq amalgaoshirishida har bir hujayraning munosib o‘rni bo‘lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir. Har bir oilaning sog'lom bo'lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanib, so‘ng o‘zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o‘z davlatining iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti taraqqiyotini ta‘minlovchi, hal qiluvchi omil bo‘lgan inson kamolotida oilaning tutgan o‘rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Uzoqov X. va boshqalar. Oila etikasi va psixologiyasi, T., 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 2-iyuldagi PQ-3827-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni, Qonunchilik hujjatlarining milliy bazasi, 2022-yil 7-mart
4. www.ziyonet.uz
5. www.guldu.uz
6. www.tdpu.uz